



XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: sirdaryo@exat.uz

2022 - yil 23 - dekabr

VI-42-162-9-0-K/22

Sirdaryo viloyati hokimligi

Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 16-noyabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining namunaviy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-431-IV-sonli qarori ijrosini ta‘minlash hamda kompensatsiya komissiyasining faoliyatini samarali tashkil qilishga ko‘maklashish maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 16-noyabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, Xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining namunaviy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-431-IV-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining reglamenti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish

masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi U.Sotiboldiyev va sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Tursunmurodov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi o'rribosari



M.Xodjiyev

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashining
2022 yil 23 dekabrdagi
VI-42-162-9-0-K/22-son
qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining REGLAMENTI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu reglament Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi kompensatsiya komissiyasining (bundan buyon matnda Kompensatsiya komissiyasi deb yuritiladi) faoliyatini tashkil qilish va uning tarkibini shakllantirish, vakolatlari, majlislarini o‘tkazish va qarorlarni qabul qilish tartibini belgilaydi.
2. Kompensatsiya komissiyasi maslahat organi hisoblanadi.
3. Kompensatsiya komissiyasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, o‘z Reglamentiga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.
4. Kompensatsiya komissiyasi o‘z faoliyati bo‘yicha Xalq deputatlari viloyat Kengashi oldida hisobdordir.

2-bob. Kompensatsiya komissiyasining faoliyatini tashkil qilish va uning tarkibini shakllantirish

5. Kompensatsiya komissiyasi viloyat Kengashi qarorlari asosida ularning huzurida tuziladi.
6. Kompensatsiya komissiyasi tarkibi Xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan o‘n yetti kishidan iborat bo‘lgan tarkibda, ikki yil muddatga tasdiqlanadi.
7. Kompensatsiya komissiyasi tarkibiga quyidagilar kiradi: o‘n nafar deputat (shundan bir nafari rais);
nodavlat notijorat tashkilotlarining uch nafar vakili;
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining hududiy bo‘linmasi vakili (ovoz berish huquqisiz);
hududiy moliya organining vakili (ovoz berish huquqisiz);

O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi hududiy bo‘linmasining vakili (ovoz berish huquqisiz);

Viloyat hokimligidagi yer uchastkalarini olib qo‘yish va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish sho‘basining rahbari (ovoz berish huquqisiz).

8. Kompensatsiya komissiyasi tarkibiga kiruvchi o‘n nafar deputat Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida saylanadi.

Kompensatsiya komissiyasi raisi komissiya tarkibidan saylanadi.

9. Kompensatsiya komissiyasi tarkibiga kiruvchi deputatning vakolat muddati tugaganda yoki qonunda nazarda tutilgan hollarda vakolati muddatidan oldin tugatilganda Kompensatsiya komissiyasiga yangi deputatlar nomzodi Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida saylanadi va Kompensatsiya komissiyasining yangi tarkibi Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari bilan tasdiqlanadi.

10. Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyatlari Kompensatsiya komissiyasining tarkibiga nodavlat notijorat tashkilotlarining nomzodlarini taqdim etish uchun – viloyat Adliya boshqarmasiga, davlat organlarining nomzodlarini taqdim etish uchun – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining viloyat boshqarmalariga, shuningdek, hududiy viloyat Moliya boshqarmalariga so‘rov yuboradi.

11. Nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumot besh ish kuni mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining viloyat boshqarmasi, viloyat Moliya boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, viloyat Adliya boshqarmasi tomonidan Xalq deputatlari viloyat Kengashiga taqdim etilishi lozim.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining nomzodlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar viloyat Adliya boshqarmalari tomonidan O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasining hududiy bo‘linmalari bilan kelishilgan holda taqdim etiladi.

12. Kompensatsiya komissiyasi tarkibiga kiruvchi a’zolar (deputatlar bundan mustasno) Kompensatsiya komissiyasining ishida ishtirok eta olmaydigan holatlarda (vafot etganda, boshqa ishga o‘tganda, pensiyaga chiqqanda va hokazo) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining viloyat boshqarmasi, viloyat Moliya boshqarmasi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi, viloyat Adliya boshqarmasi tomonidan yangi nomzodlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar besh ish kuni

mobaynida Xalq deputatlari viloyat Kengashiga taqdim etilishi lozim.

13. Kompensatsiya komissiyasi faoliyatiga umumiy rahbarlik Kompensatsiya komissiyasi raisi tomonidan amalga oshiriladi.

14. Kompensatsiya komissiyasi raisi:

Kompensatsiya komissiyasi majlisida raislik qiladi, Kompensatsiya komissiyasi a'zolarini majlisga taklif etilgan shaxslar haqida xabardor qiladi, masalalar muhokamasini tashkil qiladi (ma'ruza qilish uchun so'z beradi, majlis reglamentiga rioya etilishini ta'minlaydi, muhokama etilayotgan masalalar bo'yicha takliflarni ovozga qo'yadi, ovoz berish natijalarini e'lon qiladi), masalalar, ma'lumotnomalar, arizalar va takliflarni e'lon qiladi;

Kompensatsiya komissiyasi faoliyatini tashkil etadi, uning tavsiyaviy tusga ega qarorlari yuzasidan umumiy nazoratni olib boradi;

Kompensatsiya komissiyasiga ko'rib chiqish uchun kiritiladigan masalalarni muhokama etish va hal qilish uchun zarur sharoitlar yaratadi;

Xalq deputatlari viloyat Kengashiga Kompensatsiya komissiyasi majlislarida qabul qilingan qarorlar va ularning amalga oshirilishi, shuningdek, Kompensatsiya komissiyasi faoliyati bo'yicha umumlashtirilgan hisobotni, qoida tariqasida, har chorakda taqdim etadi.

Kompensatsiya komissiyasi raisi o'z vazifalarini vaqtincha bajara olmaydigan holatlarda uning vazifalari Kompensatsiya komissiyasi qaroriga muvofiq Kompensatsiya komissiyasining tarkibiga kiruvchi deputatlardan biriga vaqtincha yuklatilishi mumkin.

15. Kompensatsiya komissiyasi a'zolari Kompensatsiya komissiyasi majlislarida shaxsan ishtirok etish va majlis kun tartibiga kiritilgan masalalarni muhokama etish huquqiga ega.

Komissiya a'zosining komissiya majlisida ishtirok etish imkoniyati bo'limgan taqdirda, bu haqda u komissiya raisiga komissiya majlisi o'tkazilishidan kamida uch ish kuni oldin xabar qilishi shart.

Kompensatsiya komissiyasi a'zolari o'z vakolatlarini boshqa shaxslarga berishi taqiqlanadi.

16. Viloyat hokimligi yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish ishlarini muvofiqlashtirish sho'balarining rahbarlari tegishli Kompensatsiya komissiyasi kotibining vazifalarini bajaradi.

17. Kompensatsiya komissiyasi kotibi:

kompensatsiyaga oid masalalar mavjud bo‘lganda, majlis kun tartibi loyihasi va uning ishtirokchilari ro‘yxatini shakllantiradi, komissiyaning navbatdagi majlis sanasi va vaqtি bo‘yicha taklif kiritadi va Kompensatsiya komissiyasi raisi bilan kelishadi;

Kompensatsiya komissiyasi majlislari uchun zarur hujjatlarni tayyorlaydi va Kompensatsiya komissiyasi a’zolariga taqdim etadi;

ko‘rib chiqiladigan hujjatlar Kompensatsiya komissiyasiga kelib tushganda ularning nusxalarini Kompensatsiya komissiyasi a’zolariga, shuningdek, majlis ishtirokchilariga majlis boshlanishidan uch ish kuni oldin taqdim etilishini ta’milaydi;

Kompensatsiya komissiyasi majlisi bayonnomasini yuritadi;

“Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazishning integratsiyalashgan axborot tizimi”ga integratsiya qilingan maxsus axborot tizimida o‘zi uchun ochilgan shaxsiy kabinet orqali kompensatsiya o‘z vaqtida to‘liq hajmda berilishining muntazam monitoringini amalga oshiradi;

huquq egasi tomonidan kompensatsiya berilishi bilan bog‘liq nizo yuzasidan Kompensatsiya komissiyasi raisiga berilgan murojaatlarni ro‘yxatga oladi va Komissiya raisiga kiritadi;

Kompensatsiya komissiyasi raisining qonuniy ko‘rsatma va topshiriqlarini bajaradi.

18. Kompensatsiya komissiyasining vakolat muddati tugagandan keyin uning yangi tarkibi mazkur Reglamentning 8, 11-bandlarida belgilangan tartibda shakllantirilib, Xalq deputatlari viloyat Kengashining qarorlari bilan tasdiqlanadi.

3-bob. Kompensatsiya komissiyasining vakolatlari

19. Kompensatsiya komissiyasi kompensatsiyalar o‘z vaqtida to‘liq hajmda berilishi ustidan muntazam monitoring va berilgan kompensatsiyalarning hisobi yuritilishini ta’milaydi.

20. Kompensatsiya komissiyasi tomonidan kompensatsiyalar o‘z vaqtida to‘liq hajmda berilishi monitoringi va berilgan kompensatsiyalarning hisobini yuritish “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazishning integratsiyalashgan axborot tizimi”ga integratsiya qilingan maxsus axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

21. Huquq egasiga kompensatsiya berilishi bilan bog‘liq nizolar dastlab sudga

qadar muzokaralar o'tkazish yo'li bilan ko'rib chiqiladi. Huquq egasiga kompensatsiya berilishi bilan bog'liq nizo yuzasidan ariza Kompensatsiya komissiyasi arizani olgan kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi kerak.

22. Kompensatsiyaning o'z vaqtida va to'liq hajmda berilmaganligi holati aniqlangan taqdirda Kompensatsiya komissiyasi o'z majlisida monitoring natijalarini ko'rib chiqib, kompensatsiya yuzasidan nizo kelib chiqishining oldini olish bo'yicha tavsiyaviy tusga ega bo'lgan qaror qabul qiladi hamda uni kompensatsiyaning o'z vaqtida va to'liq berilmaganligiga yo'l qo'ygan tashabbuskorga yuboradi.

23. Kompensatsiya komissiyasi kompensatsiya o'z vaqtida va to'liq hajmda berilmaganligi holati aniqlanganligi to'g'risida Xalq deputatlari viloyat Kengashiga axborot kiritadi.

Mazkur axborot Xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida ko'rib chiqiladi va olib qo'yilgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarini buzish haqida Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan qaror qabul qilinmasligi uchun asos bo'ladi.

4-bob. Kompensatsiya komissiyasi majlislarini o'tkazish va qarorlar qabul qilish tartibi

24. Kompensatsiya komissiyasi majlislari, qoida tariqasida, huquq egasining arizasi Kompensatsiya komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan kundan besh ish kuni mobaynida yoki monitoring natijalariga ko'ra kompensatsiyaning o'z vaqtida va to'liq hajmda berilmaganligi holati aniqlangan taqdirda o'tkaziladi.

25. Kompensatsiya komissiyasi majlislarida monitoring hamda huquq egalari tomonidan berilgan arizalarni ko'rib chiqish uchun masalalarni tayyorlash jarayoni muammo mohiyatini chuqur va har tomonlama tahlil qilish, avval qabul qilingan qarorlar va ularni amalga oshirish choralarining samaradorligini baholash, kamchiliklarni, ularning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan sharoitlar va sabablarni aniqlashni o'z ichiga olishi lozim.

26. Kompensatsiya komissiyasi kotibi tomonidan Kompensatsiya komissiyasi majlislariga kompensatsiyalar o'z vaqtida to'liq hajmda berilishi ustidan muntazam monitoring olib borilishi va kompensatsiyaga oid muhokama etiladigan masalalar yuzasidan quyidagilar tayyorlanadi:

kompensatsiya komissiyasi majlisining kun tartibi, kelib tushgan arizaning mazmuni bo'yicha ma'lumot;

kompensatsiyalar o‘z vaqtida to‘liq hajmda berilishi va uning hisobi yuritilishi bo‘yicha ma’lumot;

avval qabul qilingan qarorlar va ularni amalga oshirish choralarining samaradorligi, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan sharoitlar va sabablar bo‘yicha tahliliy ma’lumot.

27. Kompensatsiya komissiyasining majlislari tashabbuskorlarning vakillari va huquq egalari (ularning vakillari), shuningdek, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik vakillari ishtirokida ochiq o‘tkaziladi.

28. Kompensatsiya komissiyasi majlislarida videokonferensaloqa, ovozni yozish va stenogramma yuritish, video va fotosuratga olish imkoniyati yaratiladi.

29. Kompensatsiya komissiyasi majlisi uning kun tartibini belgilash hamda tasdiqlashdan boshlanadi.

30. Majlis boshida Kompensatsiya komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lgan masalalar bo‘yicha Kompensatsiya komissiyasi raisi tomonidan axborot beriladi.

31. Majlis ishtirokchilarini bahs-munozaralarda so‘zga chiqib, muhokama etilayotgan masala bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini bildirishi mumkin.

32. Muhokama etilgan masalalar bo‘yicha Kompensatsiya komissiyasining qarori qabul qilinadi.

33. Kompensatsiya komissiyasining qarorlari uning majlislarida ovoz berish huquqiga ega bo‘lgan Kompensatsiya komissiyasi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

34. Kompensatsiya komissiyasining tavsiyaviy tusga ega bo‘lgan qarorlari Kompensatsiya komissiyasining barcha a’zolari tomonidan imzolanadi va Kompensatsiya komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi.

35. Kompensatsiyaning o‘z vaqtida va to‘liq berilmaganligiga yo‘l qo‘ygan tashabbuskorga taqdim etiladigan Kompensatsiya komissiyasining qarori o‘z ichiga ko‘rib chiqiladigan masala mohiyatining qisqacha bayonini, ushbu yo‘nalishdagi ishlarda tashabbuskor tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar, ularning sabablari va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga olishi lozim.

36. Kompensatsiya komissiyasining kotibi tasdiqlangan qarorni Kompensatsiya komissiyasining a’zolari, majlis ishtirokchilariga va tashabbuskorlarga qarordan ko‘chirmani taqdim etadi.

37. Kompensatsiya komissiyasining qaroridan norozi bo‘lgan taraf qonunchilikda belgilangan tartibda sudga murojaat qilishi mumkin.

38. Kompensatsiya komissiyasi majlisi yakuni bo‘yicha bayonnomada tayyorlanadi. Bayonnomada muhokama natijalari aks etadi. Bayonnomada uning tartib raqami, majlis o‘tkazilgan sana va joy, Kompensatsiya komissiyasiga raislik qiluvchi va unda ishtirok etgan a’zolar, tashabbuskor, huquq egalari va boshqa ishtirokchilar aniq ko‘rsatiladi.

39. Majlis bayonnomasini rasmiylashtirish Kompensatsiya komissiyasining kotibiga yukланади.

40. Majlis bayonnomasi majlis ishtirokchilari tomonidan imzolanadi hamda Kompensatsiya komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

41. Bayonnomadan ko‘chirma Kompensatsiya komissiyasi kotibining imzosi bilan tasdiqlanadi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

42. Kompensatsiya komissiyasi raisi va a’zolari o‘z faoliyatida Kompensatsiya komissiyasining reglamenti talablariga qat’iy rioya etishlari shart.

43. Kompensatsiya komissiyasi reglamentiga kiritiladigan o‘zgartirish va qo‘srimchalar Xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari bilan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi
2022 yil 23 dekabrdagi
VI-42-162-9-0-K/22-son
qaroriga
2-ilova

**Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi
Kompensatsiya komissiyasi a'zolari
RO'YXATI**

Nº	F.I.Sh	Egallab turgan lavozimi
Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari		
1.	Kambarov Bunyod Xasanbayevich	Xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi a'zosi, Guliston shahar "Bek-Qurilish-Avto" mas'uliyati cheklangan jamiyatni rahbarining o'rinososari - moliyaviy ishlar bo'yicha ijrochi direktori (<i>komissiya raisi</i>)
2.	Sulaymonov Mirza To'rayevich	Oqoltin tumanidagi "Oqoltin MS" MChJ direktori
3.	Raximov Xurshid Abdumanapovich	Sayxunobod tumanidagi "Ismat" fermer xo'jaligi rahbari
4.	Elmuradov Saloxiddin Xomidkulovich	"Adolat" sotsial demokratik partiyasi Sirdaryo tumani Kengashi raisi
5.	Tursunmuradov Rustambek Permatovich	Sirdaryo viloyati kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi Kengashi raisi
6.	Begiyev Olimjon Tojiboyevich	O'zbekiston ekologik partiyasi Sirdaryo viloyati hududiy bo'limmasi apparati rahbari
7.	Kenjayeva Marvarid Esonovna	Sardoba tumanidagi 18-umumiy o'rta ta'lif maktab direktori
8.	Abdullayeva Dilshunos Atxamovna	"Yuksalish" umummilliy harakatining Sirdaryo viloyatidagi hududiy bo'limmasi rahbari
9.	Bababekov Abdurasul Mamirovich	Xovos tumani "Shuhrat" fermer xo'jaligi rahbari
10.	Alimkulov Berdimurod	"Guliston suvloyiha" MCHJ yetakchi mutaxassisini
Nodavlat notijorat tashkilotlari		
11.	Mamaraximov Shavkat O'rolovich	
12.	Usmanova Barchinoy Mamatkulovna	
13.	Shermatov Valijan Akramovich	
Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish hududiy boshqarmasi		
14.	Sulaymonov Jaxongir Kamaljanovich	Uy-joy qurilish bo'limi boshlig'i
Viloyat moliya bosh boshqarmasi		
15.	Pardayev Komil Jo'raxolovich	Viloyat moliya bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i
O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining Sirdaryo viloyati boshqarmasi		
16.	Ermuxamedov Sherzod Azzamkulovich	Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi bosh mutaxassisi
Viloyat hokimligi tuzilmasidagi yer uchastkalarini olib qo'yish va kompensatsiya berish ishlarini muvoqiflashtirish sho'basi rahbari (<i>komissiya kotibi</i>)		
17.	Ergashev Rustam Umidjon o'g'li	Sirdaryo viloyati hokimligi qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari kotibiyati yetakchi mutaxassisi

O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi viloyat bo'limi raisi
"Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasining Sirdaryo viloyati bo'limi rahbari
"Avloddan avlodga" nodavlat notijorat tashkiloti rahbari